

**O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02 ILMUY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMUY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SATTAROVA SHAXNOZAXON QO'CHQAROVNA

**PEDAGOGLAR FAOLIYATIDA POZITIV FIKRLASHNING IJTIMOIY-
PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2026

Psiyologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации
доктора психологических наук (DSc)**

Contents of Dissertation Abstract of Doctor Psychological Sciences (DSc)

Sattarova Shaxnozaxon Qo‘chqarovna

Pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashning ijtimoiy-psixologik mehanizmlari.....	3
--	---

Саттарова Шахнозахон Кучкаровна

Социально-психологические механизмы позитивного мышления в деятельности педагогов.....	33
---	----

Sattarova Shakhnozahon Qo‘chkarovna

Social and psychological mechanisms of positive thinking in the activities of teachers	67
---	----

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ List of published works.....	72
---	----

**O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02 ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SATTAROVA SHAXNOZAXON QO'CHQAROVNA

**PEDAGOGLAR FAOLIYATIDA POZITIV FIKRLASHNING IJTIMOIY-
PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif. fan va innovansiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2025.2.PhD/P196 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) tilda Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lif portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Rasmiy opponentlar:

Umarov Bahriiddin Mingboyevich
psixologiya fanlari doktori, professor

Melibayeva Roza Nasirovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Shoyimova Shoxista Sanakulovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor


Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Ph.D.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «13 01» soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 255-80-86; faks: (99871) 256-76-51, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz). Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Ma'muriy binosi, 2-qavat, 4-anjumanlar zali.

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (13.08raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. O'MPU Ma'muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 255-80-86; faks: (99871) 256-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «10» 09 kuni tarqatildi.
(2026-yil «10» 09 dagi 358 raqamli reestr bayonnomasi).



F.A. Akramova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.B. Atabayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy Kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.T. Nishanova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda barcha ta’lim muassasalarining pedagoglarida pozitiv fikrlashni rivojlantirish bilan bog‘liq ijobjiy fikr, kasbiy muvaffaqiyatni rivojlantirishda yangicha yondashuvni ishlab chiqish, va kasbiy qoniqishini ta’minalash masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining «XXI asrning oliy ta’limi» Butunjahon deklaratsiyasi, YUNESKOning «Oliy ta’limni isloh qilish va rivojlantirish»¹ bo‘yicha dasturiy hujjatlarida ta’lim sifatini oshirish, pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minalash, innovasion va kreativ yondashuvlarni joriy etish bilan bir qatorda, pedagoglarda pozitiv fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar inson faoliyati samaradorligi, psixologik farovonligi va kasbiy barqarorligida pozitiv fikrlashning hal qiluvchi o’rin tutishini ko’rsatmoqda. «Psychology Today, Verywell Mind, Gallup Well-Being, World Happiness Report xalqaro ilmiy veb-sahifasi bergen statistik ma’lumotlariga ko’ra, bugungi kunda dunyo aholisining 35 foizi o’zini barqaror pozitiv va optimistik fikrlaydigan shaxs sifatida qaraydi, qolgan 65 foiz insonlarda esa, stress, xavotir, kasbiy noaniqlik va ijtimoiy bosimlar ta’sirida negativ yoki noaniq fikrlash ustun ekanligi aniqlangan»². Juhon Sog’liqni saqlash tashkilotining (The Word Health Organization - WHO) ma’lumotiga ko’ra, «insonlardagi ruhiy holatning zaifligi kundalik faoliyati va ish qobiliyatiga salbiy ta’sir qiladi»³. Shu sababdan, pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashni yuksaltirish, kundalik faoliyat bilan bog‘liq stresslarga nisbatan vaqtinchalik holat sifatida qarash, oz qobiliyatlarini namoyon eta olish, sub’ektiv farovonlik darajasini oshirish, o’zidan va kasbiy mehnat faoliyatidan qoniqish jihatlarini rivojlantirish, mehnat jamoasida ijobjiy emotsiyonal holatlarni barqarorlashtirish orqali pozitiv fikrlashni rivojlantirish dolzarb muammolardan bo’lib kelmoqda.

Jahon oliy ta’lim tashkilotlari va ilmiy-amaliy markazlarida insonlarda pozitiv fikrlashni shakllantirish, kasbiy faoliyatga aloqador predmetlar doirasida pozitiv fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari, kundalik hayotda pozitiv fikrlash, dunyoqarashga nisbatan ijobjiy munosabat, shaxsiy salomatlikni barqarorlashtirish, kasbiy burnout holatini oldini olish, inson faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish borasidagi ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada pedagoglar faoliyatida poizitiv fikrlashga ta’sir etuvchi omillar, pedagoglarda pozitiv fikrlashning namoyon bo’lishi, pozitiv fikrlashda kasbiy inqiroz omillari va ish qobiliyatining pasayishi, mehnat jarayonida yuzaga

¹ Доклад ЮНЕСКО по науке-2015-На пути к 2030 году. YUNESCO Пуб, 2017.-794c

²<https://www.psychologytoday.com/us/basics/positive-psychology> Positive Psychology: The Science of Happiness and Well-Being. New York: Sussex Publishers, Inc., 2025.- 350 p.

<https://www.verywellmind.com/how-gratitude-makes-you-happier-5114446> How Gratitude Makes You Happier. New York: Dotdash Meredith, 2020. - 280 p.

<https://www.gallup.com/> State of the World’s Emotional Health Report 2025: Global Positive and Negative Emotions Survey. Washington, DC: Gallup, 2025. – 420 p.

<https://www.gallup.com/file-analytics/658169/world-happiness-report-2025.pdf> Global Well-Being

Insights and Happiness Rankings. Oxford: Wellbeing Research Centre at University of Oxford, 2025. – 300 p.

³<https://www.who.int/en/health-topics/mental-health> The World Health Organization (WHO)

keladigan hissiy kuyish va kasbiy moslashuv hamda optimizm pozitsiyasining o'rni bilan bog'liq muammolar diagnostikasini amalga oshirish, psixokorreksion imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan masalalarga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashini ta'minlash, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy maydonda to'laqonli ishtirok etishlariga imkoniyat yaratish, ulardagi kasbiy yetukligi, ijobiy fikrlash orqali jamoadagi psixologik muhitni barqarorlashtirishi, o'z-o'zini rivojlantirishi, tanlagan kasbida muvaffaqiyatga erishishi barobarida to'laqonli sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli ioslohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilanib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tizmini takomillashtirish jarayonida bo'lajak va amaldagi o'qituvchilarda ijobiy fikrlashni shakllantirish muhim bo'lib, u pedagogning kasbiy faolligi va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi»⁴ vazifalarga asoslanib, pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashni ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini o'rganish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha integrativ nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydag'i O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Qonunida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida»gi, 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2019-yil 11-yuldag'i PF-5763-son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289 son «Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida»gi qarorlarida hamda boshqa huquqiy-normativ hujjatlarda belgilangan vazifalarni hal etishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21-iyundagi PQ-289 son «Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. - <https://lex.uz/uz/docs/6079561>

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi⁵. Kasbiy va o'quv faoliyatida pozitiv fikrlashga oid ilmiy izlanishlarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliv ta'lim muassasalarida, xususan, Shimoliy-sharqiy universitet (Northeastern University Boston, AQSH), Myunxen universiteti (LMU, Germaniya), Rijents universiteti (Regents University, Buyuk Britaniya), Niderlandiyaning Groningen Universitetida, Germaniyaning (Berlin Humboldt) Universiteti, Fransiyaning Sorbonna Universitetida, AQShning Michigan Universitetida, Moskva davlat universiteti (Lomonosov nomidagi MDU, Rossiya), Rossiyaning Sankt-Peterburg Davlat Universitetida, Seul Milliy universiteti (Seul National University, Janubiy Koreya), Angliyaning Chester (Psychology and Child Development (with Placement Year) BSc), Xitoy Milliy pedagogik tadqiqotlar markazlarida (NIES, Guanjou) olib borilmoqda.

Jahonda pedagoglar faoliyatida ijobiy fikrlashini rivojlantirish va ularning kasbiy faoliyatidagi samaradorlikni oshirishga qaratilgan bir qator olib borilgan tadqiqotlarda jumladan quyidagi natijalar olingan: Xalqaro Pozitiv Psixologiya Assotsiatsiyasi (IPPA) (AQSh): ushbu tashkilot ijobiy psixologiya sohasidagi tadqiqotlarni olib boradi va o'qituvchilarning ijobiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlaydi; Michigan Universiteti Ta'lim Fakulteti (AQSh): ushbu ta'lim fakultetida o'qituvchilarning ijobiy fikrlashini rivojlantirish va ularning psixologik farovonligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan; Xalqaro Emotsional Intellekt Instituti (IIEI); (Buyuk Britaniya): ushbu institute emotsional intellektni o'rganish va rivojlantirish bilan shug'ullanadi, bu esa, pedagoglarning ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi; Melburn Universiteti Ta'lim Bo'yicha Tadqiqotlar Markazi (Avstraliya): ushbu markaz o'qituvchilarning emotsional intellekti va ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar o'tkazdi; Toronto Universiteti Pedagogika Kolleji (Kanada): ushbu kollej o'qituvchilarning ijobiy fikrlashini rivojlantirish va ularning kasbiy faoliyatidagi samaradorlikni oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan; Ta'limda Farovonlik Jamg'armasi (EWF); (Avstraliya): ushbu jamg'arma ta'lim sohasida farovonlikni oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib boradi, bu esa, o'qituvchilarning psixologik salomatligi va ijobiy fikrlashini qo'llab-quvvatlaydi; Ta'lim Fanlari Instituti Akdeniz Universiteti, Istanbul Medipol Universiteti (Turkiya): ushbu muassasadagi tadqiqotlar uyda ancha muddat o'tirib qolgan va tanqidiy fikrlashga moyilligi bo'lgan pedagoglarni faollashtirishga qaratilgan; Kvins Universiteti (Buyuk Britaniya): ushbu institutda olib borilgan tadqiqot o'qituvchilardagi ijobiy fikr va mulohazalari (maqtov, sinfdagi o'zaro aloqa va

⁵ Dissertasiya mavzusi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi., URL:<https://www.yale.edu>,<https://www.elsevier.com/locate/tsc>.<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2666374024000918>,https://www.researchgate.net/publication/378277267_Factors_Influencing_the_Positive_Thinking_of_the_Future_Teacher,https://www.academia.edu/51841194/Positive_Attitude_towards_Teaching_in_Higher_Education;

akademik qo'llab-quvvatlash) rivojlantirishiga qaratilgan; Osh Davlat Universiteti (Qирг'изистон): ushbu universitetda olib borilgan tadqiqot pedagoglar faoliyatida ijobiy kayfiyatni shakllantirishga qaratilgan. Yuqoridagi olib borilgan tadqiqotlar pedagoglarning ijobiy fikrlashini rivojlantirish bilan ulardagi kasbiy faoliyatdagi samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Jahonda psixologiya sohasida pedagolgarda pozitiv fikrlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini o'rganishga hozirgi kunda dunyoda olib borilayotgan tadqiqotlarning ustuvor yo'naliishlari quyidagi mavzular bilan bog'liq: o'qituvchilarda ijobiy fikrlashni rivojlantirishda ulardagi psixologik farovonligini oshirish, o'qituvchilardagi ijobiy fikrlashni rivojlantirishda kasbiy samaradorlikni oshirish, o'qituvchilarining pozitiv fikrlashda psixologik salomatligi va ta'limda farovonlikka erishish, pedagoglarda tanqidiy fikrlashga moyilligini ijobiy ta'sir orqali psixodiagnostika qilish, o'qituvchilarda ijobiy fikrlashga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, masalalariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston psixolog olimlaridan B.S.Abdullayeva, R.A.Abdurasulov, N.B.Atabayeva, A.A.Beknazarov, M.G.Davletshin, S.X.Jalilova, S.N.Jo'rayeva, G.T.Jumayeva, G.N.Ibragimova, V.M.Karimova, Z.K.Kurbaniyazova, M.B.Matnazarova, N.R.Melibaeva, M.T.Mirsoliyeva, Z.T.Nishanova, N.S.Safaev, R.Z.Sunnatova, X.A.Tillashayxova, Sh.R.Urakov, X.Sharafuddinov, S.Sh.Shoyimova, P.S.Ergashev, X.A.Yulbarsova, O.A.Qo'ysinov, E.G'.G'oziev, va boshqalar⁶ ning tadqiqotlarida shaxsiy rivojlanishda professionalismning shakllanishi, shaxsning ijtimoiy yetukligini belgilaydigan psixologik determinantlar, mustaqil ijodiy fikrlash dinamikasi,

⁶ Abdullayeva. B.S. Bo'lajak o'qituvchilar o'quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari: Monografiya. -T.: «Bookmany print» nashriyoti. 2021. -162 b.; Abdurasulov R.A. Роль ценностей в формировании мотивации. Известия Самарского научного центра Российской академии наук. Социальные, гуманитарные, медико-биологические науки, т.22, №74, 2020. С. 44-48; Atabayeva.N.B.Psychological features of the formation of altruism motives in the family. [8](https://www.theamericanjournals.com/index.;Davletshin M.G. «Zamonaviy mакtab o'qituvchisining psixologiyasi». -T.; О'zbekiston. -29 b.; Жалилова.С.Х Психологические критерии нравственного формирования и развития личности. // Образование и инновационные исследования., 2022. №5.; Jimayeva G.T. «Maktab o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogic tizimini takomillashtirish»: ped.f.b.f.d.disser avtoref: -Termiz.; 2022. 162 b; Ibragimova G.N. «Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish»: ped.f.n.disser avtoref: T.,TDPU 2017.39 b.; Ibragimova. G.N. «Umumta'lim maktablarining o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalashda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni». Metodik qo'llanma -T.: «Abu matbuot-konsalt» 2014 B13-16.; Karimova V.M. Psixologiya -T.:O'quv qo'llanma, Qodiriy.T.A nomidagi «Xalq merosi» nashriyoti «O'AJBNT»markazi, 2002.-205 b.; Karimova V.M, Sunnatova R.I, Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash.-T.:«Sharq» 2000.; Karimova.V.M. «Ijtimoiy psixologiya». Darslik.Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti:- Toshkent – 2012-298 b.; Kurbaniyazova Z.K. «Aralash ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarining ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish» ped.f.b.f.d diss. – T., 2022. – 254 b.; Matnazarova M.B. Oliy ta'lim muassasalarini pedagog kadrlarining nazariy-metodik kompetentligini uzlusiz rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ped.f.b.f.d...diss. – T., 2018.-156 b.; Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psix. fan dok. ... dis. – T., 2005.-391 b., Tillashayhova X.A «Talaba-yoshlar psixologik farovonligi va ijtimoiy yetukligi shakllanish dinamikasining xususiyatlari» psixol.f.d.disser.avtoref: -T.,TDPU 2024 - B 5-8.;Yulbarsova X.A. «Integrativ yondasguv asosida bo'lajak o'qituvchilarining kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi» ped.f.d.– Toshkent, 2018, – B. 78.; Qo'ysinov O.A. «Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari» ped.f.b.f..diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – B.70; G'oziev E.G', O'qituvchining etnopsixologik xususiyatlari // Xalq ta'limi. - T.: 1991. № 1. B 55-96.;</p></div><div data-bbox=)

shuningdek, pedagoglar faoliyatini muvaffaqiyatli rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va fikrlashning individual-psixologik xususiyatlari, kasbiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimi, pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik va nazariy-metodik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish, pedagoglarni tayyorlashning kompetent yondashuvga asoslangan pedagogik tizimni takomillashtirish, integrativ yondashuv asosida o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish hamda o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlaktlari olimlaridan Т.Ю.Артюхова, И.В.Вачков, Л.С.Виготский, Т.О.Гордева, Т.Г.Гурулева, М.С.Замишляева, В.Ф.Калошин, И.А.Карпова, Ю.Н.Кашицына, Н.Б.Куклина, Л.В.Левицкая, А.Н.Леонтьев, Г.Н.Мешко, К.Муздибаев, Ж.В.Сидеренко, Т.Н.Слободян, С.Л.Рубинштейн, А.Ю.Свияш, О.В.Шевчишен, И.А.Зимняя va boshqalar⁷ ishlarida shaxs faoliyatining ijtimoiy sharoitlar bilan uzviy bog'liqligi, pedagog shaxsining ijobiy motivatsiyasi optimistik atribusiyasi va emosional barqarorligida kasbiy samaradorlikning ortishi, pozitiv fikrlashning kognitiv-baholovchi mexanizmlari, shaxsiy mas'uliyat va ijtimoiy munosabatlar tizimi, pedagogic faoliyatda emosional holat, o'z-o'zini anglash, kasbiy adaptasiya va shaxsiy rivojlanishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan Sh.Amonashvili, A.Bandura, N.M.Vachkov, J.Gilford, D.Goulman, O.S.Grebenyuk, P.Ekman, Yu.N.Kashitsina, D.Kehoe, A.N.Kokun, A.Maslou, L.A.Matsko, Yu.M.Orlov, J.Piaje, N.V.Pil, A.A.Rean, K.R.Rodgers, L.San, T.Sato, M.Seligman, M.N.Sexmistrenko, E.Torrens, K.Fridmutter, Z.Freyd, Sh.P.Sharma, K.Yung, N.Xill, K.Xorni va boshqalar⁸ tomonidan ta'lif

⁷ Артюхова Т.Ю. Рол и значение позитивного мышления в жизнедеятельности человека. // Проблемы теории и практики современной психологии. Всероссийской (с международным участием) научно-практической конференции. 2016.-С. 143-145., Вачков И.В. Основы технологии группового тренинга: Учебное пособие. - М.: Ос-89, 2003. - 224 с., Гордеева Т.О. Позитивное мышление как фактор учебных достижений старшеклассников. // Вопросы психологии. - 2010. - С. 24-33. Гурулева Т.Г. Значение формирования позитивного мышления с целью улучшения физического здоровья. // Научный алманах. Учредители: ООО «Консалтинговая компания Юком». - Тамбов: 2020. - С. 58-60, Замышляева М.С. Оптимизм и пессимизм в совладающем поведении в юношеском возрасте. // Воспитание в контексте междисциплинарного подхода. - 2005. - № 5. - С. 183-190.; Карпова И.А. Концепт «позитивное мышление» в американском языковом сознании: понятийная, образная и ценностная составляющие. // Сборник материалов научной сессии по итогам выполнения научно-исследовательской работы на факультете иностранных языков Московского педагогического государственного университета за 2008-2009 год. - М.: Изд-во Прометей, 2009. - С. 48-51; Калошин В.Ф. Основы позитивного мышления в образовательной деятельности. Учебное пособие. - М.: 2005. - 252 с., Кашицына Ю.Н. Позитивное мышление в системе социальных и профессиональных отношений. // Геопатогенные зоны и здоровье подрастающего поколения. - Уфа: РИЦ БашГУ, 2014. - С. 122-129.; Левицкая Л.В. Развитие саногенных чувств учащейся молодёжи как психолого-педагогическая проблема. // Сборник научных трудов №40: Изд-во Нац. Академии Гос. приграничный. службы Украины им. Б. Хмельницкого, 2007. - С. 228-231; Леонтьев Д.А. Позитивная психология - повестка дня нового столетия // Психология. Журнал Высшей школы экономики. - 2012. - Т. 9, № 4. - С. 36-58.; Муздыбаев К. Оптимизм и пессимизм личности. // Социологические исследования. - 2003. - № 12. - С. 87-96.; Сидоренко Ж.В. Позитивное мышление: сущность и история понятия. // Аллея науки. - 2015. - С. 301-308. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб.: Питер Ком, 1999.

⁸ Adler, A. The Individual Psychology of Alfred Adler: A Systematic Presentation in Selections from His Writings. Edited by H. L. Ansbacher and R. R. Ansbacher. New York: Basic Books, 1956; Atkinson, J.W. An Introduction to Motivation. - Princeton, NJ: Van Nostrand, 1964; Bandura, A. Self-efficacy: The exercise of control. New York: Freeman, 1997; Carver, C.S., Scheier, M.F. On the Self-Regulation of Behavior. - Cambridge: Cambridge University Press, 1998; Deci, E.L., Ryan, R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. - New York: Springer, 1985; Diener, E. Subjective well-being: The science of happiness and a proposal for a national

olvuchilarda va pedagoglarda pozitiv fikrlash tushunchasi va mohiyati hamda insonning taraqqiy etishida tafakkurning xususiyatlari, uning salomatlikka ijobiy ta'sir etishi, pedagoglarda pozitiv fikrlashni shakllanishi va rivojlanishi, bilish jarayonlarida tafakkurning ong osti faoliyatidagi o'rni ilmiy tadqiq etilgan.

Lekin pedagoglarda pozitiv fikrlash, shaxsdagi optimism va pessimism, atributiv uslublarlar orqali o'zini rivojlantirish, kundalik hayotda pozitiv fikrlash, dunyoqarashga nisbatan ijobiy munosabat, shaxsiy salomatlikni barqarorlashtirish, kasbiy burnout holatini oldini olish, inson faoliyatini rivojlantirish darajalari bilan bog'liqligi o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lif va ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi. Dissertatsion tadqiqot Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining «Psixologiya tarixini o'rganish, umumiyligini psixologiya mazmunini o'zlashtirish, shaxs psixologiyasini tasniflash, psixofiziologik tadqiqotlar ko'lamenti kengaytirish, tibbiy va kasb psixologiyasi qonuniyatlarini o'rganish, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya hamda yosh davrlari va pedagogik psixologiyaning konseptual asoslarini tadqiq qilish» nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2021-2024- y.y.).

Tadqiqotning maqsadi pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini kompleks tadqiq etish va uni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni empirik o'rganish;

pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlash namoyon bo'lishining qiyosiy tahlilini aniqlash;

pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlash yuzaga kelishida kasbiy inqiroz omillari va ish qobiliyati pasayishining ta'sirini o'rganish;

pedagoglarda pozitiv fikrlash qaror topishida hissiy kuyish, kasbiy moslashuv va optimizm pozitsiyasining o'rnini tadqiq etish;

index // American Psychologist. - 2000. - Vol. 55. - P. 34-43; Frankl, V.E. Man's Search for Meaning. - Boston: Beacon Press, 2006; Fredrickson, B.L. Positivity: Top-Notch Research Reveals the 3-to-1 Ratio That Will Change Your Life. - New York: Three Rivers Press, 2009; Heckhausen, H. Motivation and Action. - Cambridge: Cambridge University Press, 1991; Maslow, A.H. Motivation and Personality. - New York: Harper & Row, 1954; McClelland, D.C. The Achieving Society. - Princeton, NJ: Van Nostrand, 1961; Seligman, M.E.P. Authentic Happiness: Using the New Positive Psychology to Realize Your Potential for Lasting Fulfillment. - New York: Free Press, 2002; Seligman, M.E.P. Learned Optimism: How to Change Your Mind and Your Life. - New York: Knopf, 1991; Orlov, Y.M. Thinking That Brings Health and Success to Educational Staff. // Upbringing and Education, 2001, No. 3-9; Pil, N.V. *New Positive Thinking*. Minsk: Popurri, 2014. 159 p; Sato, T. *Positive Thinking*. St. Petersburg: Vector, 2006. 185 p; Seligman, M. *The New Positive Psychology: A Scientific Perspective on Happiness and the Positive Meaning of Life*. Moscow: Sofia Publishing, 2006. 368 p; Semchenko, P.A. Formation of a Professional in Modern Conditions of Pedagogical Activity. // Perspectives of Science and Education, 2014, No. 2, pp. 124-129; Sidorenko, Zh.V. Positive Thinking: Essence and History of the Concept. // Alley of Science, 2015, pp. 301-308; Sichev, A.A. Manifestation of Optimism-Pessimism in Specialized Training Subjects. // Scientific Problems of Humanities Research, 2008, No. 9(16), pp. 56-61; Hill, N. *Keys to Positive Thinking: 10 Steps to Health, Wealth, and Success*. Moscow: Dilya, 2007. 186 p; Tsekhmistrenko, M.N. Positive Thinking of the Teacher. // School Principal. St. Petersburg: Publishing Firm "Sentyabr," 2020, pp. 106-111; Sharma, S.P. *Achieving Success Through Positive Thinking*. Moscow: Astrel, AST, 2007. 191 p.

pedagoglarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik mexanizmlar yaratish va uning samaradorligini baholashda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashni rivojlantirish jarayoni tanlangan bo'lib, tadqiqotga Nizomiy nomidagi O'MPU, Farg'ona davlat universiteti, Qarshi davlat universitetining professor - o'qituvchilaridan 252 nafari, Toshkent shahridagi 79-126-131-135-sonli, Farg'ona viloyatidagi 48-22-21-33-sonli, Qashqadaryo viloyatidagi 15-2-34-38-sonli umumta'lim maktab o'qituvchilarining 268 nafar respondentlar tadqiqotga jalg etildi. Respondentlarning umumiyligi soni 520 nafarni tashkil etdi.

Tadqiqotning predmetini pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashni rivojlantirish mexanizmlarini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat metodlari, «Pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlash» nomli mualliflik so'rovnomasasi Sh.Q.Sattarova, L.M.Rudinaning «Atributiv uslublar testi» metodikasi, S.Peterson va M.Seligmanlarning «Shaxsdagi optimizm va pessimizm pozitsiyasini aniqlash» metodikasi, O.M.Chorosova va R.E.Gerasimovlarning «O'qituvchining kasbiy rivojlanishidagi inqiroz omillarini aniqlash» so'rovnomasasi, A.B.Leonovoy va S.B.Velichkovskayalarning «Ish qobiliyatini pasayish holatlarini differentialsial baholash» metodikasi, V.V.Boykoning «Hissiy so'nish diagnostikasi» metodikasi, O.I.Rodinaning «Kasbiy moslashuvni baholash» metodikalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchhlilik darajasi Kruskal-Uollis, Mann-Uitni, Spirman, Vilkokson mezonlari orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

o'qituvchilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari kasbiy munosabatlarda kognitiv-emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, ixtiyoriy nazorat va optimistik atributiv uslublarni dinamik ifodalanishiga asoslanib intrapsixik resurslarning pozitiv fikrlash darajasiga vektorli ta'siri bilan determinatsiyalashganligi dalillangan;

pedagoglardagi pozitiv fikrlash darajasi muvaffaqiyat haqidagi semantik birlikni, ishdagi monotonlikni o'zgartiruvchi omil sifatida faollashtirish ish motivatsiyasini oshirganligi tufayli optimistik kognitiv strukturaning mehnat faoliyatidan qoniqqanlik darajasi ta'sirida namoyon bo'lishi bilan determinatsiyalashganligi aniqlangan;

pedagoglardagi pozitiv fikrlashni namoyon bo'lishiga psixologik to'siq bo'lувchi omillar emotsiyal charchoq, shaxsiy yutuqlarni reduksiyalashga intilishning ijtimoiy aloqalar, tashabbuskorlik va vaziyatni nazorat qila olish kabi xususiyatlarning sust rivojlanganligi bilan bog'liqligi tufayli shaxsiy depersonalizatsiyaning «ekzistensial frustratsiya» asosida kuchli namoyon bo'lishiga ko'ra aniqlangan;

pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashning namoyon bo'lish darajalari ijtimoiy-demografik (yosh, jins, hudud, mehnat tajribasi) omillarning kasbiy «Men»ni differensiatsiyasiga ta'siri natijasida muvaffaqiyatni umumiyligi faollik rakursida idrok etishga bog'liq kasbiy moslashuv darajasiga identiv namoyon bo'lishiga ko'ra aniqlangan;

pedagoglarda pozitiv fikrlashni rivojlantirish modeli faoliyatga nisbatan pessimistik kognitsiyalarning optimistik qarashlarga faoliyat intrintsiv motivlar va shaxsiy – kasbiy identifikatsiya orqali o'zgarishi muhimligi tufayli motivasion-kognitiv, ijodiy, ijtimoiy, emotsiyon xususiyatlarning «men muvaffaqiyatli» konstruktiga ko'ra birligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

pedagoglarda pozitiv fikrlashni rivojlantirish, pozitiv fikrlashning namoyon bo'lishi va ularga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashtirish asosida maxsus ishlab chiqilgan rivojlantiruvchi dastur aprobatsiya qilingan;

pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik modeli yaratilib, amaliyotga joriy qilingan;

tadqiqot natijalaridan olingan xulosalar asosida oliy ta'lim va umumta'lim maktabi pedagoglalar faoliyatida pozitiv fikrlashga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlar ishlab chiqilib, aprobatsiyadan o'tkazilgan;

pedagoglarda pozitiv fikrlashni rivojlantirish bo'yicha oliy ta'lim va umumta'lim maktab pedagoglariga taqdim etuvchi tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatlari yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi izlanish obektlarining maqsadga mos tanlanganligi, respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, foydalanilgan metodikalarning validligi, qo'lga kiritilgan empirik miqdorlarning matematik statistikasining ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, bunda zamonaviy elektron dasturiy vositalar qo'llanilganligi, natijalar «Mc Excel», «SPSS 20.0», dasturlari vositasida qayta ishlanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaloyotga joriy etilganligi, izlanishlar aniq va rejaviy bosqichlarda bir-birini to'ldiruvchi usullar tordamida amalga oshirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pedagoglarda pozitiv fikrlashni rivojlantirish va ularda pozitiv fikrlashning namoyon bo'lishi, pedagogga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillar, pozitiv fikrlash yuzaga kelishida kasbiy inqiroz omillari va ish qobiliyati pasayish, pozitiv fikrlash qaror topishida hissiy kuyish, kasbiy moslashuv va optimizm pozitsiyasi, pedagoglarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik mexanizmlar mazmun-mohiyatining ochib berilganligi hamda olingan natijalar «Shaxs psixologiyasi», «Kasb psixologiyasi», fanlarini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amlaiy ahamiyati olingan tajribaviy-empirik ma'lumotlar asnosida oliy ta'lim va umumta'lim maktabi pedagoglari o'z faoliyatida pozitiv fikrlashni rivojlantirishda foydalanishi mumkinligi, olingan natijalar va ilgari surilgan g'oyalar pedagoglar kasbida pozitiv fikrlashga taalluqli konseptual nazariyalarning shakllanishiga xizmat qilishi, nazariy umumlashma va tahlillarda pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlash darajasini tekshirishga mo'ljallangan metodikalardan foydalanishda va «Psixologik xizmat asoslari», «Psixologik trening asoslari», «Ekperimental psixologiya» fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

pedagogik faoliyat subyektlari bo‘lgan o‘qituvchilarining ijtimoiy-psixologik holati asosida, kasbiy munosabatlar va intrapsixik resurslar orqali namoyon bo‘ladigan pozitiv fikrlash darajasi, kognitiv-emotsional barqarorligi, stressga psixologik qarshilik darajasi, ixtiyoriy nazorat va optimistik atributiv uslublar kabi omillar ularning pozitiv fikrlash darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi determinantlar sifatida aniqlanganligiga oid ilmiy xulosalar Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-383-sun buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduli mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-383 ma’lumotnomasi). Natijada ta’lim sohasi uchun tayyorlanadigan pedagog psixologlarning pozitiv fikrlashini tadqiq etishning nazariy-uslubiy tahlili hamda zamonaviy tushunchasining mohiyati oolib berildi. Tayanch kompetensiyalarni shakllantirish kasbiy rivojlanishdagi ahamiyati hamda pozitiv fikrlovchi pedagogning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish sohasida sifat jihatdan o‘sishga erishilgan;

pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashning namoyon bo‘lish darajalari demografik va kasbiy jihatdan jins, staj, tashkilot, hudud hamda ijtimoiy-psixologik omillar, kasbiy tajriba davomiyligi, genderga xos psixologik xususiyatlar va kasbiy moslashuv darajasi bilan bog‘liqlikda rivojlanishining qiyosiy tahlili dalillanganligiga oid ilmiy xulosalar Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-383-sun buyrug‘iga asosan bo‘lg‘usi amaliyotchi psixologlarni tayyorlashda «Kasb psixologiyasi» moduli mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-383 ma’lumotnomasi). Natijada har tomonlama yetuk, pozitiv xarakterga ega bo‘lgan pedagogni kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishda, pedagogning kasbiy rivojlanish jarayonida, pozitiv fikrlashni o‘rni va ahamiyatining rivojlanishidagi tayyorgarlik darajasini oshirish sohasida sifat jihatdan o‘sishga erishilgan;

pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashning yuzaga kelishida uchraydigan kasbiy inqiroz omillari, emotsiyal charchoq, ish unumdarligining pasayishi, motivatsiya yetishmasligi, psixovegetativ sindromlar, pedagoglarda negativ atributiv uslublar, pessimistik kognitiv struktura va kasbiy so‘nish holatidagi negativ ta’sirlarga oid ilmiy natijalar Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-383-sun buyrug‘iga asosan bo‘lg‘usi amaliyotchi psixologlarni tayyorlashda «Shaxs psixologiyasi» moduli mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-383 ma’lumotnomasi). Natijada psixolog va pedagog kadrlarning pozitiv fikrlashini rivojlantirish uchun zarur ilmiy-amaliy hamda uslubiy tayyorgarligi takomillashtirilgan;

pedagoglarda pozitiv fikrlashni keskin susaytirishga bevosita ta'sir etuvchi psixologik omillar emotsiyal charchoq, hissiy kuyish sindromi sifatida namoyon bo'lish bilan bir qatorda, pedagogik faoliyatda moslashuv darajasi yuqori bo'lgan kasbiy moslashuv va optimizm pozitsiyasi ilmiy asoslangan bo'lib, pedagoglarda ijtimoiy aloqalar, tashabbuskorlik va vaziyatni nazorat qila olish kabi sifatlar orqali pozitiv kognitiv-emotsional uslublar, optimizm pozitsiyasi bilan pozitiv fikrlash o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik asoslanib, ushbu faktorlarni rivojlantirish imkoniyati mavjud ekanligi isbotlangan natijalar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-383-son buyrug'iga asosan bo'lg'usi amaliyotchi psixologlarni tayyorlashda «Kasb psixologiyasi» moduli mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-383 ma'lumotnomasi). Natijada psixolog va pedagog kadrlarning pozitiv fikrlashini rivojlantirish uchun zarur kognitiv-emotsional uslublar, optimizm pozitsiyasi bilan pozitiv fikrlash kabi ilmiy-amaliy uslubiy tayyorgarligi takomillashtirilgan;

pedagoglarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik mexanizmlar asosida metodikalar ishlab chiqish orqali, yangi ijtimoiy-psixologik mexanizmlar va treninglar shakllantirish natijasida pedagoglarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlar samaradorligi asosida muayyan bilim, ko'nikma va malaka, faol psixologik rivojlanish, ijtimoiy tajriba, shaxsiy identifikatsiya, intensiv rivojlanish, mustaqil kasbiy hayotga tayyorlanish, shaxsiy motiv va ehtiyojlarni anglash, o'z shaxsiyatining barcha tomonlarini qabul qilish, pozitiv barkamollik, psixologik ma'rifatparvarlik va kompetentlikni oshirishni va pozitiv fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan psixodiagnostik majmuuning «Pozitiv psixologiya» modulning yaratilishi hamda pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik treningning psixotexnologiyalari Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-383-son buyrug'iga asosan amaliyotchi psixologlarni tayyorlashda «Psixologik trening asoslari», moduli mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazinin 2025-yil 16-iyundagi PM-383 ma'lumotnomasi). Natijada pedagoglarda ayrim muammoli vaziyatlarda ijobiy munosabatni yaratadi, o'zini rivojlantirishning faol shakllarini qo'llab-quvvatlaydi, shaxslararo munosabatda ochiqlik va insoniy munosabatni rivojlantiradi hamda ta'limga pozitiv yondoshuv tufayli tinglovchilarining hulq-atvorida ham atrofdagilarga pozitiv munosabatlarni shakllantirgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatasiysi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot natijalarining asosiy natijalari bo'yicha 19 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Oliy attestasiya komissiyasining dissertasiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola jumladan, 10 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsion ish kirish, to‘rt bob, ularga xulosa, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va muvofiq ilovalar ro‘yhatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 234 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsion tadqiqotning «**Kirish**» qismida mavzuning dolzarbliji va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslangan; dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi va umumta’lim maktab pedagoglari doirasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot rejalar bilan aloqadorligi ohib berilgan; tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, metodlari ifodalangan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan ma’lumotlarning ishonchliligi bayon etilgan; ularning nazariy va amaliy ahamiyati ohib berilgan; tadqiqot natijalarining tadbipi va ularning sinovdan o‘tishi bayon qilingan. Bundan tashqari chop etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga xorij olimlari tadqiqotlarida pedagoglar faoliyati, kasbiy rivojlanish hamda shaxsning pozitiv fikrlashi, dunyoni optimizm bilan qabul qilish masalalari yoritilgan. Zamonaviy xorijiy psixologiya tadqiqotlarda, pedagoglarda pozitiv fikrlash tushunchasiga psixolog olimlar tomonidan taklif etilgan quyidagi ta’riflarni keltirib o’tish joizdir. Unga ko‘ra, M.Seligmanning ta’kidlashicha, pozitiv fikrlash, bu shaxsning hodisa va vaziyatlarga ijobiy talqin berishga moyilligi, muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan atributiv uslubni shakllantirish va psixologik bardoshlilikni oshiruvchi kognitiv jarayondir. U o‘qituvchining stressga bardosh berishida, kasbiy motivatsiyasi va emotsiyal farovonligini mustahkamlashda ijobiy atributsiyalarning o‘rnini alohida ta’kidlaydi. A.Banduraning fikricha, pozitiv fikrlash, shaxsning o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli bajarishga bo‘lgan ishonchi va ijtimoiy muhitdan o‘rganilgan ijobiy kognitiv modellar orqali rivojlanadigan jarayon deb izohlaydi. Pedagogning o‘ziga bo‘lgan ishonchi uning o‘quv jarayonidagi murakkab vazifalarni hal etishida, moslashuvchan strategiyalar tanlashida va stress holatlariga tez moslasha olishida muhim psixologik omil bo‘lib hisoblanadi deydi. K.Rojers esa, pozitiv fikrlashni shaxsning o‘zini qabul qilish, ichki ijobiy potensialini faollashtirish va atrofdagilar bilan samimiy muloqotga intilish bilan bog‘liq psixologik holat sifatida izohlaydi. Uning fikricha, pedagoglarda o‘z «Meni»ga nisbatan ijobiy munosabatning shakllanishi ularning kasbiy farovonligi va emotsiyal barqarorligini mustahkamlaydi deb ta’kidlaydi. Bizning mualliflik yondashuvimizga ko‘ra, «pedagoglarda pozitiv fikrlash» deb shaxsning o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli bajarishga bo‘lgan ishonchini oshirish barobarida, ijtimoiy muhitdan o‘rganilgan ijobiy kognitiv usullar orqali o‘zini rivojlantirish, o‘z faoliyati bilan bog‘liq hodisa va vaziyatlarga ijobiy munosabat bildirish, psixologik barqarorlik, stressni to‘g‘ri baholab chidamlilikni oshirish va kasbiy samaradorlikka erishishib, o‘z shaxsiga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirish jarayoniga aytiladi.

O'zbekiston psixologlari izlanishlarida muammoning ilmiy tadqiq etilishiga doir masalalarni yoritishga e'tibor qaratilgan. Shu bilan bir qatorda, tadqiqotning asosiy predmeti bo'lgan pedagoglarda pozitiv fikrlash tushunchasi jadval shaklida tizimli tahlil qilingan va mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning «**Psixologiyada pedagoglarning pozitiv fikrlashini o'rganishning nazariy-metodologik tahlili**» deb nomlangan birinchi bobda pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari muammosini tadqiqotlarda o'rganish tajribasini tahlil qilishda xorij va mamlakatimiz psixolog olimlarining ishlariga e'tibor qaratildi. Xususan, mazkur bobning asosiy qismida qator olimlar Т.Ю.Артюхова, И.В.Вачков, Л.С.Виготские, Т.О.Гордева, Т.Г.Гурулева, М.С.Замишляева, В.Ф.Калошин, И.А.Карпова, Ю.Н.Кашицына, Н.Б.Куклина, Л.В.Левицкая, А.Н.Леонтьев, Г.Н.Мешко, К.Муздибаев, Ж.В.Сидеренко, Т.Н.Слободян, С.Л.Рубинштейн, А.Ю.Свияш, О.В.Шевчишен, И.А.Зимня va boshqalar⁹ va boshqalar shaxs faoliyatining ijtimoiy sharoitlar bilan uzviy bog'liqligi, pedagog shaxsining ijobiy motivatsiyasi optimistik atribusiyasi va emosional barqarorligida kasbiy samaradorlikning ortishi, pozitiv fikrlashning kognitiv-baholovchi mexanizmlari, shaxsiy mas'uliyat va ijtimoiy munosabatlar tizimi, pedagogic faoliyatda emosional holat, o'z-o'zini anglash, kasbiy adaptasiya va shaxsiy rivojlanishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari tadqiq etilgan.


Uzoq xorij olimlari Sh.Amonashvili, A.Bandura, N.M.Vachkov, J.Gilford, D.Goulman, O.S.Grebenyuk, P.Ekman, Yu.N.Kashitsina, D.Kehoe, A.N.Kokun, A.Maslou, L.A.Matsko, Yu.M. Orlov, J.Piaje, N.V.Pil, A.A.Rean, K.R.Rodgers, L.San, T.Sato,M.Seligman, M.N.Sexmistrenko, E.Torrens, K.Fridmutter, Z.Freyd, Sh.P.Sharma, K.Yung, N.Xillar tomonidan pedagoglarda pozitiv fikrlash tushunchasi va mohiyati, pozitiv fikrlashning yoshlar hayotining turli jabhalariga pozitiv ta'siri, yosh pedagoglarda sanogen tuyg'ulari, pozitiv fikrlashda optimizm tushunchasi, ijobiy fikrlash prinsipi, pozitiv fikrlashda aqliy munosabat, barqaror

⁹ Артюхова Т.Ю. Роль и значение позитивного мышления в жизнедеятельности человека. // Проблемы теории и практики современной психологии. Всероссийской (с международным участием) научно-практической конференции. 2016.-С. 143-145., Вачков И.В. Основы технологии группового тренинга: Учебное пособие. - М.: Ос-89, 2003. - 224 с., Гордеева Т.О. Позитивное мышление как фактор учебных достижений старшеклассников. // Вопросы психологии. - 2010. - С. 24-33. Гурулева Т.Г. Значение формирования позитивного мышления с целью улучшения физического здоровья. // Научный алманах. Учредители: ООО «Консалтинговая компания Юком». - Тамбов: 2020. - С. 58-60, Замышляева М.С. Оптимизм и пессимизм в совладающем поведении в юношеском возрасте. // Воспитание в контексте междисциплинарного подхода. - 2005. - № 5. - С. 183-190.; Карпова И.А. Концепт «позитивное мышление» в американском языковом сознании: понятийная, образная и ценностная составляющие. // Сборник материалов научной сессии по итогам выполнения научно-исследовательской работы на факультете иностранных языков Московского педагогического государственного университета за 2008-2009 год. - М.: Изд-во Прометей, 2009. - С. 48-51; Калошин В.Ф. Основы позитивного мышления в образовательной деятельности. Учебное пособие. - М.: 2005. - 252 с., Кашицына Ю.Н. Позитивное мышление в системе социальных и профессиональных отношений. // Геопатогенные зоны и здоровье подрастающего поколения. - Уфа: РИЦ Баш-ГУ, 2014. - С. 122-129.; Левицкая Л.В. Развитие саногенных чувств учащейся молодёжи как психолого-педагогическая проблема. // Сборник научных трудов №40: Изд-во Нац. Академии Гос. приграничный. службы Украины им. Б. Хмельницкого, 2007. - С. 228-231; Леонтьев Д.А. Позитивная психология - повестка дня нового столетия // Психология. Журнал Высшей школы экономики. - 2012. - Т. 9, № 4. - С. 36-58.; Муздибаев К. Оптимизм и пессимизм личности. // Социологические исследования. - 2003. - № 12. - С. 87-96.; Сидоренко Ж.В. Позитивное мышление: сущность и история понятия. // Аллея науки. - 2015. - С. 301-308. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб.: Питер Ком, 1999.

salomatlik va o‘zini-o‘zi pozitiv rivojlantirish, pozitiv fikrlashda individual va emotsiyonal sifatlar, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi, shaxsiy va kasbiy o‘z-o‘zini anglash pedagoglarda pozitiv fikrlashni rivojlantirish xususiyati nuqtai nazaridan ilmiy va nazariy jihatdan tahlil qilingan. O‘rganilgan adabiyotlar va ilmiy adabiy manbalarni tahlil qilish va umumlashtirish pedagogning kasbiy rivojlanish jarayonida pozitiv fikrlashning roli yetarli darajada ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlashga asos beradi. Bu yaxlit dinamik tarzda kechadigan jarayon, avvalo, shaxsning o‘zgarishi, rivojlanishi bilan bog‘liq ko‘pgina omillarni qamrab oladi, ularning muvaffaqiyatli kechishi pedagogik faoliyatga va ta’lim samaradorligiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir deb aytish mumkin.


Tadqiq etilayotgan masala bo‘yicha O‘zbekistonda psixologiya va pedagogika ilmining vakillari B.S.Abdullayeva, R.A.Abdurasulov, N.B.Atabayeva, A.A.Beknazarov, M.G.Davletshin, S.X.Jalilova, S.N.Jo‘rayeva, G.T.Jumayeva, G.N.Ibragimova, V.M.Karimova, Z.K.Kurbaniyazova, M.B.Matnazarova, N.R.Melibaeva, M.T.Mirsoliyeva, Z.T.Nishanova, N.S.Safaev, R.Z.Sunnatova, X.A.Tillashayxova, Sh.R.Urakov, H.Sharafitdinov, S.Sh.Shoyimova, P.S.Ergashev, X.A.Yulbarsova, O.A.Qo‘ysinov, E.G‘.G‘ozievlarining ilmiy izlanishlarida fikrlash turlari va sifatlari, mustaqil fikrlash, mustaqil ijodiy fikrlash dinamikasi tadqiq etilgan. Zamonaviy ilmiytadqiqot ishlarining aksariyati zamonaviy pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorlash, pedagog va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlarini shakllanishi va rivojlanishida o‘qituvchilar o‘quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasi, motivatsiyaning shakllanishida qadriyatlarning roli, ularda altruizm motivlarini shakllantirish, stressga barqarorlikni oshirish, interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarda kreativlik qobiliyatlarini hamda psixologik farovonligini shakllantirish va o‘quv-tarbiya jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy qilish nuqtai nazaridan pedagogik psixologik xususiyatlari o‘zaro bog‘liq holda yoritishga harakat qilingan.

Dissertatsiyaning **«Oliy ta’lim va maktab pedagoglarida pozitiv fikrlash namoyon bo‘lishining empirik o‘rganilishi»** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotda olingan natijalar keltirilgan, ko‘rib chiqilayotgan masalalar bo‘yicha muayyan aniqlikni ta’minlaydi. Shu bilan birga, o‘rganilayotgan hodisaning ijtimoiy-psixologik jihatni yuqori mutanosibligini hisobga olgan holda, O‘zbekiston sharoitida pedagoglarning pozitiv fikrlashini rivojlantirish uchun samarali jarayonni yanada aniqlashda asoslangan yondashuvini aniqlash, bizningcha, ijobiy fikrlashning nazariy jihatdan aniqlangan xususiyatlarini empirik tarzda ochib berishni asoslashga e’tibor qaratilgan. Buning uchun maxsus tayyorlangan mualliflik ijtimoiy-psixologik so‘rovnama tashkil etildi va o‘tkazildi.



1-rasm. «Sizdagi ijobiy fikrlashning kasbiy rivojlanishingizga ta'siri bormi?» savoliga respondentlarning javoblari (n=520)

1-rasmda keltirilgan pedagoglarning ijobiy fikrlashi kasbiy rivojlanishiga qanchalik ta'sirining ahamiyatliligini aniqlash maqsadida «Sizdagi ijobiy fikrlashning kasbiy rivojlanishingizga ta'siri bormi?» deya berilgan savol natijalaridan bizga ma'lum bo'ldiki, sinaluvchilarning 38,3%i «Kasbiy muvaffaqiyatga erishib, o'zini-o'zi rivojlantirishga intiladi», 48,1% «Atrofdagilar bilan yahshi munosabatda bo'ladi, bu esa kasbiy tarmoqni kengaytirib, imkoniyatlarini oshiradi», 10,5% «Inson salomatligini barqarorlashtirib, mehnat faoliyatining samaradorligini oshiradi», 3,1% «Ijobiy fikrlash nafaqat kasbiy balki, shaxsiy rivojlanishda ham muhimdir» deb aksariyat respondentlar o'z munosabatlarini bildirishgan.



2-rasm. «Pedagoglarda negativ fikrlashning shaxsiy faoliyatiga ta'siri bormi?» savoliga respondentlarning javoblari (n=520)

2-rasmda keltirilgan ko'rsatkichlar pedagoglarda salbiy fikrlashning shaxsiy faoliyatiga ta'sirini aniqlash maqsadida «Pedagoglarda negativ fikrlashning shaxsiy faoliyatiga qanday ta'siri bor?» deya berilgan savolga sinaluvchilarning 12,7%i «Doimiy tushkun kayfiyatda bo'ladi», 46,5%i «O'ziga va o'zgalarga nisbatan salbiy ta'sirini namoyon qiladi», 32,5%i «Salomatligida

jiddiy xavfni paydo qiladi», 8,3%i respondentlar shaxsiy munosabat bildirishgan. Pedagoglarda pozitiv fikrlashda atributiv uslublar, optimizm pozitsiyasining namoyon bo‘lishi hudud, tashkilot, staj, jinslar kesimida tafovutlari aniqlandi.

1-jadval.

L.Rudinaning «Atributiv uslublar testi» metodikasi bo'yicha oliy ta'lim va maktab pedagoglaridagi pozitiv fikrlash xususiyatlarining mehnat stajlar kesimidagi tafovutlari (n=520) (Kruskal-Uollis mezoni bo'yicha)

Atributiv uslublar	Staj	n	Ranglar o'rtachasi	H	p
Omadsizlik vaqtি	1-5 yil	150	339,13	63,385	$p \leq 0,001$
	5-15 yil	130	235,42		
	15-25yil	128	226,45		
	25 yildan ko'p	112	223,37		
Muvaffaqiyat vaqtি	1-5 yil	150	258,89	32,169	$p \leq 0,001$
	5-15 yil	130	229,71		
	15-25yil	128	314,09		
	25 yildan ko'p	112	226,30		
Muvaffaqiyatsizliklar kengligi	1-5 yil	150	231,15	15,014	$p \leq 0,01$
	5-15 yil	130	298,66		
	15-25yil	128	255,85		
	25 yildan ko'p	112	260,84		

1-jadval natijalariga ko'ra, stajlar kesimida «Omadsizlik vaqtি» bo'yicha natijalari qiyosiy o'rganilganda, ular o'rtasida ahamiyatli farqlar aniqlandi ($H=63,385$; $p \leq 0,001$). 1-5 yil stajga ega bo'lган pedagoglarda omadsizlik vaqtি yuqori natija bergen, bunga ko'ra ularda hali yangi ish sharoitiga moslashuv va tajribali pedagog bo'lishga intilish uchun ko'proq mehnat qilish kerakligidan dalolat beradi, 5-15 yil stajga ega bo'lган pedagoglarda omadsizlik vaqtি darajasi nisbatan past, bu ulardagi turli ijtimoiy va kasbiy stresslarga duch kelish barobarida uni bir muncha yengib o'tganligi bilan belgilanadi, 15-25 va 25 yil va undan ortiq stajga ega bo'lган pedagoglarda omadsizlik darajasi sezilarli past ko'rsatkichda farq qilgan, bu ulardagi kasbiy o'zligini topganligi, omadsizlik va stressga barqaror yechim topish orqali muvaffaqiyatsizlik doimiy emasligini anglab yetishganliklari sabab bo'lishi tadqiqot natijalari orqali qayd etildi.

«Muvaffaqiyat vaqtি» bo'yicha natijalari o'rtasida ahamiyatli tafovutlar kuzatildi ($H=32,169$; $p \leq 0,001$). 1-5 yil stajga ega bo'lган pedagoglarda pozitiv fikrlash darajasi 5-15 yilga nisbatan yuqori natija bergen, bu ularning ishga bo'lган motivatsiyasi va energiyasi yuqoriligi, ular ishga yahshi moslashib, yangi pedagog sifatida ishni shiddatli davom ettirishadi. 5-15 yil stajga ega bo'lган pedagoglarda pozitiv fikrlash darajasi nisbatan past ko'rsatgan, bu davrda pedagoglar o'z faoliyatini o'zlashtirib, stressga duch kelishi va ba'zi qiyinchiliklarni ko'proq his qilishi mumkin. 15-25 yil stajga ega bo'lган pedagoglarda pozitiv fikrlash darajasi 1-5 va 5-15 yilga nisbatan yuqori natijada ko'tarilgan, bu shuni anglatadiki, ushbu stajlarda ishlovchi pedagoglar faoliyatida aniqroq muvaffaqiyatlarga erishishi va kasbga bo'lган ishonchni qaytarib olishlari

hamda pedagogik yondashuvlarga muvaffaqiyatli yondashuvlari bo'lishi kuzatilgan. 25 yil va undan ortiq stajga ega bo'lgan pedagoglarda pozitiv fikrlash darajasi yanada pasaygani aniqlandi, bu ulardagi kasbiy yondashuvlar va ish jarayonlarida hissiy charchash, ish qobiliyatining pasayishi kabi omillar ulardagi muvaffaqiyat vaqtini kamaytirishi sabab bo'lishi tadqiqot natijalari orqali qayd etildi.

«Muvaffaqiyatsizliklar kengligi» natijalari o'rtasida ($H=15,014$; $p\leq 0,01$) ahamiyatli tafovutlar kuzatildi. 1-5 yil stajga ega bo'lgan pedagoglarda muvaffaqiyatsizliklar kengligi darajasi boshqa mehnat stajidagilarga nisbatan past ko'rsatkichda berilgan, bu ulardagi yangi kasbiy muhitga to'liq moslashmaganligi, muammolarni jiddiy qabul qilmasligi va motivatsiyaning yuqoriligi bilan belgilanadi. 5-15 yil stajga ega bo'lgan pedagoglarda muvaffaqiyatsizliklar kengligi darajasi eng yuqori qiymatiga ega bo'lib, kasbiy inqiroz davri desak ham bo'ladi, ularda o'zlarining martaba va shaxsiy hayotidagi muammolariga ko'proq e'tibor bera boshlashi bilan belgilanadi. 15-25 yil stajga ega bo'lgan pedagoglarda muvaffaqiyatsizliklar kengligi darajasi pasaygan, bu mehnat tajribasidagi pedagoglar o'z kasbida bir muncha tajriba orttirgani va qiyinchiliklarni boshqarish qobiliyatları rivojlangani bilan belgilanadi. 25 yil va undan ortiq stajga ega bo'lgan pedagoglarda muvaffaqiyatsizliklar kengligi natijalari biroz ko'tarilgan, bu pedagoglardagi hissiy charchoq, ish qobiliyati va motivatsiyaning pasayishi, yangi metod va yangi axborotlashgan pedagogik o'zgarishlarga moslashish qiyinligi sabab bo'lishi tadqiqot natijalari orqali qayd etildi.

«Maqbul hodisalar» bo'yicha olingen natijalar o'rtasida ahamiyatli tafovutlar kuzatildi ($H=2,482$; $p>0,05$). «Yakuniy natija» bo'yicha olingen natijalar o'rtasida ahamiyatli tafovutlar kuzatildi ($H=2,031$; $p>0,05$). Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida ta'kidlash mumkinki, 1-5 yil staj, 5-15 yil staj, 15-25 yil staj, 25 yil va undan ortiq stajga ega bo'lgan pedagoglarda pozitiv fikrlashning atributiv uslublari va ish tajribalari kesimida ahamiyatli tarzda tafovutlandi, shu jumladan, «Omadsizlik vaqt», «Muvaffaqiyat vaqt», «Muvaffaqiyatsizliklar kengligi», kabi jihatlar sezilarli ravishda bir-biridan farq qildi.

Dissertaçiyaning uchinchi bobi **«Pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashga ta'sir etuvchi omillar»** deb nomlanib, unda olingen metodikalar bo'yicha ($n=520$) psixodiagnostik ma'lumotlarni umumlashtirish va talqin qilish asosida ishlab chiqilgan mexanizmi pedagoglarning ijobiy fikrlashini rivojlanishining holatini o'rganish imkonini berdi. Empirik tadqiqot tanlovi pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashning komponent tarkibi rivojlanishini o'rganish uchun quyidagi metodikalardan tashkil topgan psixodiagnostik kompleks yordamida amalga oshirildi: L.M.Rudinaning «Atributiv uslublar testi» (AUT) metodikasi, O.M.Chorosova va R.E.Gerasimov «Kasbiy rivojlanishidagi inqiroz omillarini aniqlash» so'rovnomasi, A.B.Leonova va S.B.Velichkovskayalarning «Ish qobiliyatini pasayish holatlarini differensial baholash» metodikasi (DORS), S.Peterson va M.Seligman «Shaxsdagi optimizm va pessimizm pozitsiyasini aniqlash» metodikalari orqali o'rganildi. Spirmen mezoni bo'yicha olingen psixodiagnostik ma'lumotlarning korrelyatsion tahlili bir nechta statistik ahamiyatli ijobiy aloqalarni aniqlash imkonini berdi.

2-jadval.

**L.M.Rudinaning «Atributiv uslublar testi» va O.M.Chorosova,
R.E.Gerasimovlarning «Kasbiy rivojlanishidagi inqiroz omillari»
metodikalari o‘rtasidagi umumiy natija asosidagi korrelyatsion aloqalar
(Spirmen mezoni bo‘yicha)**

Atributiv uslublar	Kasbiy rivojlanishidagi inqiroz omillari (O.M.Chorosova, R.E.Gerasimov)			
	Istiqbolli omilning yo‘qligi	Yangi narsalarga yo‘naltirish omili, rivojlanish niyatları	O‘zini tutabiliş omili	Maqsadga erishish omili
Muvaffaqiyat vaqtı	-0,125**	0,191**	0,189**	0,230**
Muvaffaqiyat kengligi	0,019	0,063	0,088	0,135**
Men - omadsiz	-0,079	0,178**	0,137**	0,166**

2-jadval Umumiy, ya’ni barcha tadqiqot ishtirokchilarini qamrab olgan natija (2-jadval) asosida atributiv uslublar va kasbiy rivojlanishdagi inqiroz omillari o‘rtasidagi korrelyatsion aloqalarni o‘rganish quyidagilarni namoyon etdi: atributiv uslub doirasidagi «Muvaffaqiyat vaqtı» ko‘rsatgichi kasbiy rivolanishdagi inqiroz omili xisoblangan «Istiqbolli omilning yo‘qligi» bilan salbiy korrelyatsiyani ($r=-0,125$; $p\leq 0,01$), «Yangi narsalarga yo‘naltirish omili» ($r=0,191$; $p\leq 0,01$) - «O‘zini tutabiliş omili» ($r=0,189$; $p\leq 0,01$), «Maqsadga erishish omili» ($r=0,230$; $p\leq 0,01$) bilan esa ijobiy korrelyatsiyani hosil qildi.

3-jadval.

**L.M.Rudinaning «Atributiv uslublar testi» va A.B.Leonova,
S.B.Velichkovskayalarning «Ish qobiliyatini pasayish holatlari» metodikalari
o‘rtasidagi umumiy natija asosidagi korrelyatsion aloqalar
(Spirmen mezoni bo‘yicha)**

Atributiv uslublar	Ish qobiliyatini pasayish holatlari (A.B.Leonova, S.B.Velichkovskaya)		
	Monotonlik indeksi	To‘yinganlik indeksi	Stress indeksi
Omadsizlik vaqtı	0,136**	0,221**	0,168**
Muvaffaqiyat vaqtı	0,142**	0,083	0,049
Muvaffaqiyat kengligi	0,203**	-0,055	-0,04

Bunday natija, bizningcha, ijobiy hodisalar barqarorligini aks etadigan «Muvaffaqiyat vaqtı» shkalasi istiqbol omilning yo‘qligi bilan salbiy korrelyatsiyani hosil qilishi muvaffaqiyatni barqaror hodisa sifatida qabul qiladigan o‘qituvchilar istiqbolning yo‘qligi bilan bog‘liq inqirozli holatlarning ta’siriga kamroq tushishga moyil ekanlar, va aksincha, kelajakda o‘zi uchun

imkoniyat ko‘rmayotgan o‘qituvchilar o‘z muvaffaqiyatlarini kamroq esga olishar ekan.

3-jadvalda taqdim etilgan ma’lumotlar orqali A.B. Leonova va S.B. Velichkovskaya tomonidan ishlab chiqilgan «Ish qobiliyatini pasayish holatlarini differensial baholash» metodikasi va atributiv uslublar testi shkalalari orasidagi aloqalar aks ettirilgan. Mazkur korrelyatsiyalar murakkab psixologik munosabatlarni yoritib, «Omadsizlik vaqt» shkalasi ishda pasayish holatlarining barcha ko‘rsatkichlari, ya’ni monotonlik indeksi ($r=0,136$; $p\leq 0,01$), to‘yinganlik indeksi ($r=0,221$; $p\leq 0,01$) va stress indeksi ($r=0,168$; $p\leq 0,01$) bilan bilan statistik jihatdan ahamiyatli musbat korrelyatsiyalarga ega ekanligini ko‘rsatib berdi. Bizningcha, bu shuni anglatadiki, shaxs muvaffaqiyatsizliklari va muammolarining sabablarini doimiy deb biladigan o‘qituvchilar ish jarayonida ko‘proq monotonlik, to‘yinganlik va stress holatlarini his qiladilar. Bunday o‘qituvchilar omadsizlikni doimiy hodisa deb qabul qilib, (3-jadval) psixologik charchoq va hissiy to‘liqlik holatiga tez tushadilar. «Muvaffaqiyat vaqt» shkalasi faqat monotonlik indeksi bilan statistik jihatdan ahamiyatli musbat korrelyatsiyaga ega ($r=0,142$; $p\leq 0,01$) ekanligini, bu esa hodisalarini ijobjiy talqin etuvchi o‘qituvchilar ham ish jarayonida monotonlikni his qilishlari mumkinligini ko‘rsatadi. «Muvaffaqiyat kengligi» shkalasi monotonlik indeksi bilan statistik jihatdan ahamiyatli ijobjiy korrelyatsiyalarni hosil qilgan ($r=0,203$; $p\leq 0,01$) bo‘lib, yaxshi hodisalarini keng ko‘lamda talqin etadigan o‘qituvchilar ham monotonlik holatini boshdan kechirishlari mumkinligini, biroq, «Muvaffaqiyat kengligi» shkalasi to‘yinganlik va stress indekslari bilan statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liq emas, bu esa yaxshi hodisalarga optimistik munosabat bildiruvchi o‘qituvchilar ruhiy to‘yinganlik va stress holatlariga kamroq duch kelishini ko‘rsatdi.

4-jadval.

L.M.Rudinaning «Atributiv uslublar testi» va V.V.Boykolarning «Hissiy kuyish ko‘rsatgichlari» metodikasi o‘rtasidagi Umumiy natija asosidagi korrelyatsion aloqalar (Spirmen mezoni bo‘yicha)

Atributiv uslublar	Hissiy kuyish ko‘rsatgichlari (V.V.Boyko)			
	Imkonsiz holatlar	Kasbiy vazifalarni qisqartirish	Hissiy kamchiliklar	Shaxsiy ajralish (depersonalizatsiya)
Omadsizlik vaqt	0,236**	-0.023	0,156**	0,145**
Muvaffaqiyat vaqt	0.034	0.006	-0.013	0.047
Muvaffaqiyat kengligi	-0,154**	0.084	0,086	0.005
Men - omadsiz	-0.038	0,185**	0.007	-0.027

4-jadval Atributiv uslublar testi shkalalari va V.V. Boyko metodikasi bo‘yicha hissiy kuyish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsion aloqalar keltirilgan bo‘lib, olingan natijalar o‘qituvchilarning hissiy kuyish holatiga tushish ehtimoli

ularning atributiv uslublariga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. «Omadsizlik vaqt» shkalasi «Imkonsiz holatlar» ($r=0,236$; $p\leq 0,01$), «Hissiy kamchiliklar» ($r=0,156$; $p\leq 0,01$) va «Shaxsiy ajralish» ($r=0,145$; $p\leq 0,01$) ko'rsatkichlari bilan statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy korrelyatsiyaga ega. Bu shuni anglatadiki, o'z muvaffaqiyatsizliklari va muammolarining sabablarini doimiy deb biladigan o'qituvchilar ko'proq harakatsizlik, hissiy qashshoqlik va shaxsiy ajralish holatlariga duch kelar ekanlar. Omadsizlikka moyil o'qituvchilar o'zlarini psixotravmatik vaziyatlardan chiqib keta olmaslik hissi bilan bog'liq «Imkonsiz holatlar» holatini ko'proq his qilar ekanlar. Shuningdek, ular hissiyotlarni kasbiy faoliyatdan chiqarib tashlash va shaxsiy ajralish kabi emotsiyal kuyish belgilarini ko'proq namoyon etar ekanlar.

5-jadval.

L.M.Rudinaning «Atributiv uslublar testi» va O.I. Rodinalarning «Kasbiy moslashuv ko'rsatgichlari» metodikasi o'rtaqidagi Umumiyl natija asosidagi korrelyatsion aloqalar (Spirmen mezoni bo'yicha)


Atributiv uslublar	Kasbiy moslashuv ko'rsatgichlari (O.I. Rodina)					
	Hissiy o'zgarishlar	Umumiy faollikning pasayishi	Somato-vegetativ kasalliklar	Uyqudan uyg'onish davrining buzilishi	Ijtimoiy o'zaro ta'sirning xususiyatlari	Faoliyat motivatsiyasining pasayishi
Omadsizlik vaqt	0,155* *	0,107*	0,190**	-0.035	-0.003	0.006
Muvaffaqiyat vaqt	0.074	-0,171**	-0.066	-0,106*	-0.065	-0.016
Men - omadsiz	0.01	-0,091*	-0,195**	-0,102*	-0,144**	-0,146**

«Muvaffaqiyat kengligi» shkalasi «Imkonsiz holatlar» ko'rsatkichi bilan statistik jihatdan ahamiyatli manfiy korrelyatsiyaga ega ($r=-0,154$; $p\leq 0,01$). Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, yaxshi voqealarni keng ko'lamda talqin etadigan o'qituvchilar «Imkonsiz holatlar» hissini kamroq boshdan kechirishlari mumkin. «Men - omadsiz» shkalasi faqat «Kasbiy vazifalarni qisqartirish» ko'rsatkichi bilan statistik jihatdan ahamiyatli musbat korrelyatsiyaga ega ($r=0,185$; $p\leq 0,01$). Bu shuni anglatadiki, muvaffaqiyatsizlikda o'z aybini tan oladigan o'qituvchilar kasbiy vazifalarni qisqartirishga ko'proq moyil bo'ladilar. Bu holat o'qituvchilarning o'z muvaffaqiyatsizligi uchun o'zini ayblash orqali hissiy sarflarni talab qiladigan vazifalarni qisqartirishga harakat qilishlarini ko'rsatadi.

5-jadval tahlili atributiv uslublar bilan kasbiy moslashuv orasidagi muhim korrelyatsion aloqalarni ko'rsatmoqda, bu pedagogik faoliyatda psixologik moslashuvning muhim jihatlarini tushunish imkonini beradi. Shaxsnинг о‘з muvaffaqiyatsizliklari sabablarini doimiy deb qabul qilish tendensiyasini o‘lchaydigani «Omadsizlik vaqt» shkalasi bilan bir qator moslashuv muammolari, ya’ni hissiy o‘zgarishlar ($r=0,155$; $p\leq0,01$) va somatovegetativ kasalliklar ($r=0,190$; $p\leq0,01$) ijobiy korrelyatsiya aloqalari aniqlangan. Bu korrelyatsiyalar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar muvaffaqiyatsizliklarni doimiy va o‘zgarmas deb hisoblashsa, ular kayfiyat o‘zgarishlari, ishchanlik qobiliyatining pasayishi va jismoniy salomatlik bilan bog‘liq muammolarni ko‘proq his qiladilar. Bu natijalar M.Seligman nazariyasiga mos keladi, unda ko‘rsatilishicha, muvaffaqiyatsizliklarni doimiy deb hisoblaydigan pessimistik atributsiya uslubi turli xil psixologik va fiziologik sohalarida faoliyat buzilishlariga olib kelishi mumkin. «Muvaffaqiyat vaqt» shkalasi esa, ya’ni yaxshi hodisalarini doimiy deb tushuntirish uslubi, umumiyligi faollikning pasayishi ($r=-0,171$; $p\leq0,01$) va uyqudan uyg‘onish davrining buzilishi ($r=-0,106$; $p\leq0,05$) kabi moslashuv muammolari bilan salbiy korrelyatsiyaga ega. Bu shuni anglatadiki, o‘qituvchilar yutuqlarni, ijobiy voqealarni doimiy va barqaror deb qabul qilsa, ularning umumiyligi faolligi yuqoriqoq bo‘lib, uyqu sifati yaxshiroq bo‘ladi. Bu optimistik atributsiya uslubi umumiyligi energiya darajasi va fiziologik tiklanish jarayonlariga ijobiy ta’sir qilishini ko‘rsatadi, bu esa kasbiy moslashuvning muhim omillari hisoblanadi. «Men - omadsiz» shkalasi bo‘yicha natijalar alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki bu shkala salbiy hodisalar uchun personalizatsiyani, ya’ni muvaffaqiyatsizlikda o‘z aybini tan olishni o‘lchaydi. Bu shkala ijtimoiy o‘zaro ta’sirning xususiyatlari ($r=-0,144$; $p\leq0,01$) va faoliyat motivatsiyasining pasayishi ($r=-0,146$; $p\leq0,01$) kabi moslashuv muammolari ko‘rsatkichlari bilan salbiy ammo ishonchli korrelyatsiyaga ega.

Pedagogik faoliyat kontekstida bu shuni anglatadiki, o‘z muvaffaqiyatsizliklarini shaxsiy xususiyatlari yoki harakatlar bilan bog‘laydigan o‘qituvchilar, hamkasblar va o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilishda qiyinchiliklarga kamroq duch keladilar. Bu korrelyatsion aloqalar atributiv uslublar o‘qituvchilarning kasbiy moslashuvida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, muvaffaqiyatni doimiy va ijobiy hodisalar sifatida qabul qilish hamda muvaffaqiyatsizliklar uchun ma’lum darajada shaxsiy javobgarlikni qabul qilish moslashuv qobiliyatlarini yaxshilashi mumkin. Lekin bu natijalar o‘qituvchilarning atributiv uslublarini tuzatishga qaratilgan psixologik yordamni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurligini ta’kidlaydi, bu esa ularning psixologik va fiziologik salomatligi yaxshilanishiga, shuningdek pedagogik faoliyat samaradorligining oshishiga olib kelishi mumkin.

Pedagoglarda pozitiv fikrlash modeli



3-rasm. Pedagoglarda pozitiv fikrlash modeli

Model samaradorligini baholash uchun tadqiqotimizda quyidagi tizimli-yaxlit yondashuvga tayangan holda quyidagi o‘zaro bir-biriga bog’liq mexanizmlarni o‘z ichiga olgan pedagoglarda pozitiv fikrlashni rivojlantirish strukturasini taklif etamiz:



4 -rasm. Pedagolarda pozitiv fikrlashni rivojlantirish mexanizmi

Demak, tadqiqot ishimizning asosiy konseptual g’oyasi oliy ta’lim va mакtab pedagoglarining pozitiv fikrlashida kognitiv, motivatsion, emotsiонаl, ijtimoiy, irodaviy va innovatsion sohalarda muvaffaqiyatga erishish, hamda shaxslararo munosabatlarda ijobjiy ta’sir ko’rsatish orqali kasbiy o’sishga erishish imkonini beradi. Tadqiqotimizni tizimli-yaxlit yondashuvga tayangan holda quyidagi o‘zaro bir-biriga bog’liq mexanizmlarni o‘z ichiga olgan «Pedagolarda pozitiv fikrlashni rivojlantirish strukturasi»ni taklif etamiz: Kognitiv: oqilona fikrlash, muammolarni ijobjiy hal qilish strategiyalari va o’qituvchilarining dunyoqarashi hamda optimizm va pessimism darajasi muammolarini hal qilish qobiliyatini shakllantiradi. Emotsional: ruhiy barqarorlik, stressga chidamlilik, ijobjiy taassurotlar va shaxsiy farovonlik darajasini oshishida samarali ro’l o’ynaydi. Motivatsion: mukammallikka intilish, ijtimoiy maqsadlar qo‘yish va kasbiy motivatsiya, o’ziga bo’lgan ishonch hamda mehnat faoliyatiga ijobjiy munosabatni shakllantiradi. Ijtimoiy: hamkorlik, ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, hamkasblar va o’quvchilar bilan o‘zaro ijobjiy munosabat hamda ijtimoiy qo’llab-quvvatlash tizimini oshishiga xizmat qiladi. Ijodiy va innovatsion: bunday yondashuvlar yangicha fikrlash, muammolarga noodatiy yechim topish, yangi g’oyalarni ilgari surish va ularni amaliyotga joriy etish imkonini beradi hamda hamkorlik va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash malakalarini oshiradi.

Dissertaциyaning to‘rtinchi bobи «**Pedagolarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik yo’llari**» deb nomlanib, unda pedagoglarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishda psixologik treninglarning o‘rni hamda rivojlantiruvchi tajriba sharoitida pozitiv fikrlashning tarkibiy komponentlariga doir masalalar qamrab olingan. Mazkur bobda pedagoglar uchun rivojlantiruvchi dastur ishlab chiqilib, tajriba-sinov ishlari jarayoniga tatbiq etildi. Ishlanmaning asosiy maqsadi pedagoglarda pozitiv fikrlashni rivojlantirish etib belgilangan. Maqsaddan kelib chiqib, quyidagi asosiy vazifalar shakllantirildi: atributiv uslublarda optimizmni aniqlash; shaxsdagi optimizm va pessimizm pozitsiyasini aniqlash; muvaffaqiyat motivaциyasini rivojlantirish; pedagogda pozitiv fikrlashining xususiyatlari haqida to‘liq bilimini rivojlantirish;

pedagoglarning shaxsiy individual-psixologik xususiyatlarni anglashiga ko‘maklashish va boshqalar.

Ijtimoiy-psixologik rivojlantiruvchi dasturi to‘rt haftaga (haftasiga ko‘pi bilan ikkita mashg‘ulot) mo‘ljallangan. Trening guruhining tavsiya etilgan hajmi 12-14 pedagoglarni tashkil etdi. Tayyorlangan ijtimoiy-psixologik treningning asosi 120 daqiqlik sakkizta maxsus mashg‘ulotdan iborat. Pedagoglarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan rivojlantiruvchi dasturning ijtimoiy-psixologik treningi uchun tayyorlangan dasturning samaradorligini tadqiq etish maqsadida qayta tekshiruv amalga oshirildi hamda eksperimental tadqiqot tashkillashtirildi va o‘tkazildi. Unda oliv ta’lim muassasalari va umumta’lim maktabi pedagoglaridan 64-nafari ishtirok etdi. Shunga muvofiq olingan empirik ma’lumotlar tahlili amalga oshirildi.

6-jadval.

L.M.Rudinaning «Atributiv uslublar testi» metodikasi orqali Pedagoglarda Vilkokson mezoni bo‘yicha rivojlantiruvchi eksperiment ta’sirida pozitiv fikrlashida atributiv uslublar namoyon bo‘lishining ko‘rsatkichlari (n=64)

O‘zini o‘zi faollashtirish komponentlari	Respondentlar	Tajriba guruhi (=16; =16)		W qiymati	Nazorat guruhi (=16; =16)		Z qiymati
		Manfiy ranglar	Musbat ranglar		Manfiy ranglar	Musbat ranglar	
Muvaffaqiyat-sizliklar kengligi	Maktab o‘qituvchilari	11,64	12,40	-1,66	13,42	12,50	-1,39
	OTM pedagoglari	16,44	11,95	-4,41**	12,24	12,27	-0,55
Muvaffaqiyat kengligi	Maktab o‘qituvchilari	17,68	20,14	-2,31*	15,31	16,89	0,39
	OTM pedagoglari	18,48	17,14	0,35	14,57	15,33	-0,61
Men - omadsiz	Maktab o‘qituvchilari	13,44	12,20	-0,48	4,95	6,52	-0,86
	OTM pedagoglari	18,86	13,62	-4,68**	13,75	14,27	-0,56
Men - omadli	Maktab o‘qituvchilari	9,60	13,50	-4,52**	12,74	13,29	-1,01
	OTM pedagoglari	15,00	16,60	0,63	13,45	14,20	-0,55

Izoh:^{*} p≤0,05; ^{**}p≤0,01 (- maktab o‘qituvchilari soni, – OTM pedagoglari soni).

6-jadval Vilkokson mezoni bo'yicha natijalardan kelib chiqib, L.M.Rudinaning «Atributiv uslublar testi» metodikasi bo'yicha shaxs o'z muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarining sabablarini tavsiflovchi kognitiv mexanizm sifatida inson o'zining ichki va tashqi omillar orqali o'zidagi atributsiya orqali baholangan. «Muvaffaqiyat kengligi» bo'yicha rivojlantiruvchi trening ko'rsatkichlarda tajriba guruh – "Maktab pedagoglari" orasida ahamiyatli tafovutlar qayd etildi ($W=2,31; p\leq 0,05$). Ushbu natijani shunday sharhlash mumkinki, rivojlantiruvchi mashg'ulotlardan keyin maktab o'qituvchilarida keskin muvaffaqiyat kengligi oshish holati kuzatilgan, ya'ni bu o'zgarish tasodifiy emas, bundan shu anglashimiz mumkinki, maktab o'qituvchilarida muvaffaqiyatni qamrab olish qobiliyati oshgan, ya'ni ular o'z hayotida va kasbiy faoliyatida ijobiy imkoniyatlarni kengroq ko'ra boshlagan, ushbu pedagoglar o'z muvaffaqiyatlarini va imkoniyatlarini avvalgidan ko'ra optimistroq baholashgan bu esa, rivojlantiruvchi mashg'ulotlarimizning samarali ta'sirida deb taxmin qilamiz. Nazorat guruhi – rivojlantiruvchi eksperiment ta'sirida bo'limgan pedagoglar guruhi bo'lib, ($Z=-0,39; p>0,05$), Muvaqqiyat kengligi sezilarli darajada o'zgarmagan bu esa, ularda rivojlantiruvchi eksperiment o'tkazilmaganda deb hisoblaymiz.

«Men omadli» bo'yicha rivojlantiruvchi trening ko'rsatkichlarda, tajriba guruhida oshgan bo'lib - maktab pedagoglari orasida ahamiyatli tafovutlar aniqlandi ($W=-4,52; p\leq 0,01$). «Men omadli» shkalasi shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchi muvaffaqiyatga bo'lgan intilishi hamda kelajakdag'i imkoniyatlarini qanday baholashi bilan bog'liq, bu ijtimoiy-psixologik barqarorligi, motivatsiyasi, ish sharoiti, kasbiy charchash darajasi va o'zini anglash kabi omillar bilan bog'liq. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, rivojlantiruvchi mashg'ulotlar maktab o'qituvchilariga juda kuchli ta'sir etgan bo'lib, ular o'zlarini omadli his qilish darajasida katta ijobiy o'zgarishni boshdan kechirganlar. Nazorat guruhi – rivojlantiruvchi eksperiment ta'sirida bo'limgan pedagoglar guruhi bo'lib, maktab pedagoglarida manfiy va musbat ($Z=-1,01; p>0,05$) ranglarda "Men omadli" sezilarli darajada o'zgarmagan bu esa, ularda rivojlantiruvchi eksperiment o'tkazilmaganda deb hisoblaymiz.

«Muvaffaqiyatsizliklar kengligi» oliy ta'lim muassasasi pedagoglarining pozitiv fikrlashda atributiv uslublar bo'yicha rivojlantiruvchi dasturdan so'ng tajriba guruhida - ahamiyatli tafovutlar aniqlandi ($W=-4,41; p<0,01$). Bundan shuni anglashimiz mumkinki, rivojlantiruvchi eksperiment oliy ta'lim muassasasi pedagoglariga samarali ta'sir ko'rsatgan, natijada ular muvaffaqiyatsizlikni avvalgidek umumlashtirish o'rniga, muammolarga to'g'ri yechim topish, stressga barqaror fikr bildirish, salbiy fikrlar o'rnini ijobiy affirmatsiyalarga aylantirish, o'zidan qoniqish, o'zgalarni boricha qabul qilish kabi xususiyatlar bilan muvaffaqiyatsizliklarni torroq baholashni o'zlarida rivojlantirishgan. Trening natijalaridan keyin oliy ta'lim pedagoglarida ichki muvaffaqiyat oshdi, ya'ni, dars jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatishida, muvaffaqiyatsizliklarni doimiy emasligini to'liq his etganliklari - bu vaqtinchalik va o'tkinchi holat ekanligini, muayyan qiyinchiliklar mavjud bo'lsa-da lekin, ular pedagogning butun kasbiy faoliyatini

belgilamasligini to‘g‘ri talqin qila olish kabi o‘zgarishlar natijasida pedagoglarning ijobiy fikrlash darajasi hamda ulardag‘i motivatsion sohasi kuchayganligini trening jarayonida olib borilgan mashg‘ulotlardagi fikrlaridan angladik. Nazorat guruhi – rivojlantiruvchi eksperiment ta’sirida bo‘lmagan pedagoglar guruhi bo‘lib, Oliy ta’lim muassasasi pedagoglarida manfiy va musbat ($Z=-0,55$; $p>0,05$), muvaffaqiyatsizliklar kengligi sezilarli darajada o‘zgarmagan, bu esa, ularda rivojlantiruvchi eksperiment o‘tkazilmaganligida deb baholadik.

«Men omadsiz» bo‘yicha rivojlantiruvchi trening ko‘rsatkichlarda, tajriba guruh – oliy ta’lim muassasasi pedagoglari orasida ahamiyatli farqlar aniqlandi ($W=-4,68$; $p\leq0,01$), ushbu natijani shunday sharhlash mumkinki, rivojlantiruvchi mashg‘ulotlardan oldin ushbu muassasa pedagoglarida omadsizlik yuqori edi, bunga sabab, oliy ta’lim muassasasi pedagoglari individual shaxs sifatida o‘zlarini omadsiz deb baholaganlar, bunga kasbiy muhit, akademik bosim: fan taraqqiyoti va ilmiy izlanishlar bilan uzlusiz shug‘ullanishi, ilmiy nashrlar, dissertatsiyalar, grantlar, ilmiy bilimlar mavjudligidagi talablar, xorijiy tillarni bilishga bo‘lgan yuqori talab, axborot innovatsion tizimidan yuqori bilimga ega bo‘lish va bunga talablarning oshib borayotganligining mavjudligi ta’sir qilgan. Ushbu bosimlar pedagogda shaxsiy muvaffaqiyatsizlik hissini kuchaytiradi. Oliy ta’lim muassasasi pedagoglarida «Men omadsiz» maktab o‘qituvchilariga nisbatan yuqori ko‘rsatkichda edi, ammo rivojlantiruvchi tadbirlar natijasida «Men omadsiz»ga nisbatan Oliy ta’lim pedagoglarida ancha samarali ta’siri bo‘lgan. Nazorat guruhi – rivojlantiruvchi eksperiment ta’sirida bo‘lmagan pedagoglar ($Z=-0,56$; $p>0,05$), ranglarda «Men omadsiz» sezilarli darajada o‘zgargan bo‘lsa-da bu esa, ularda rivojlantiruvchi eksperiment o‘tkazilmaganda omadsizlikni talqin qilish uslubi o‘zgarishsiz qolishini tasdiqlaydi.

Maktab o‘qituvchilarining optimizm darajasi bo‘yicha (7-jadval) rivojlantiruvchi eksperiment natijalarida o‘qituvchilarining optimizm ko‘rsatkichi bo‘yicha ahamiyatli farqlar aniqlandi ($W=-4,60$; $p\leq0,01$). Bundan shuni anglashimiz mumkinki, maktab pedagoglarida tajriba guruhida olib borilgan rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar samarali natija berdi, jumladan, ulardag‘i pedagogik faoliyatda optimizm darajasining o‘sganligi, hayotiy vaziyatlarga ijobiy yondashish qobiliyatining shakllana boshlashi, psixologik barqarorlik, stressni to‘g‘ri baholab chidamlilikni oshirish natijasida kasbiy samaradorlikda ijobiy o‘zgarishlar bo‘ldi. Rivojlantiruvchi eksperiment davomida o‘qituvchilarда salbiy fikrlashdan ijobiy fikrlashga o‘rgatish texnikalari o‘rgatib borildi, muammoli vaziyatlarga to‘g‘ri yondashuv strategiyalari orqali muammolarni konstruktiv baholashga yo‘naltirildi. O‘ziga ishonch mashqlari orqali optimizmni yanada his qilish malakalari oshishi natijasida ularda kognitiv o‘zgarishlar tufayli, o‘qituvchilarining optimistik darajasi ko‘tarildi. Nazorat guruhi – rivojlantiruvchi eksperiment ta’sirida bo‘lmagan pedagoglar guruhi bo‘lib, maktab o‘qituvchilarida sezilarli tarzda oshgan bo‘lsada lekin ($Z=-1,95$; $p>0,05$) statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadidi. Bu holat esa, ularda rivojlantiruvchi eksperiment o‘tkazilmaganda optimizmni talqin qilish uslubi o‘zgarishsiz qolishini tasdiqlaydi.

7-jadval.

L.M.Rudinaning «Atributiv uslublar testi» metodikasi orqali Umumta’lim maktabi va oliy ta’lim muassasasi pedagoglarida Vilkokson mezoni bo‘yicha rivojlantiruvchi eksperiment ta’sirida pozitiv fikrlashda optimizmni namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari (n=64)

Shaxsdagi optimism pozitsiyasini	Respondentlar	Tajriba guruhi (=16; =16)		W qiymati	Nazorat guruhi (=16; =16)		Z qiymati
		Manfiy ranglar	Musbat ranglar		Manfiy ranglar	Musbat ranglar	
Optimizm	Maktab o‘qituvchilari	9,90	13,64	-4,60**	9,18	9,46	-1,95
	OTM pedagoglari	10,10	15,64	-5,06**	10,20	11,30	-0,84

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$ (– maktab o‘qituvchilari soni, – OTM pedagoglari soni

Oliy ta’lim muassasasi pedagoglarida optimizm darajasi bo‘yicha rivojlantiruvchi eksperiment natijalarida o‘qituvchilarining optimizm ko‘rsatkichi bo‘yicha ahamiyatli farqlar aniqlandi ($W=-5,06; p \leq 0,01$). Bu ko‘rsatkich mifiktab o‘qituvchilariga nisbatan ham oliy ta’lim pedagoglari optimistroq ekanliklarini yana bir bor ko‘rsatdi. Pedagogning o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchi ularning motivatsiyasi va natijalariga bevosita ta’sir qildi, eksperiment davomida pedagoglar o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini oshirishdi, bu esa ulardagi optimizmning oshishiga sabab bo‘ldi. Optimistik pedagoglar muammolarni hal qilishda ijobjiy yondashishdi va stressga bardoshli bo‘ldi, oliy ta’lim pedagoglari uchun mahsus mashg‘ulotlar stressni kamaytirib, optimistik fikrlashni rivojlantirishga yordam berdi deb baholaymiz. Nazorat guruhi – rivojlantiruvchi eksperiment ta’sirida bo‘lmagan pedagoglar guruhi bo‘lib, oliy ta’lim pedagoglarining sezilarli tarzda oshgan bo‘lsada, lekin ($Z=-0,84; p > 0,05$) statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadidi. Bu holat esa, ularda rivojlantiruvchi eksperiment o‘tkazilmaganda optimizmni talqin qilish uslubi o‘zgarishsiz qolishini tasdiqlaydi.

XULOSA

«Pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari»ni tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar asosida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi.

1. Pedagogda pozitiv fikrlashning rivojlanishi o‘z faoliyatida sressga bardoshlilik, mehnatdan qoniqish, xissiy barqarorlik, kasbiy inqiroz va emotsiyal kuyish holatlari, ish qobiliyatining pasayishi, ijtimoiy psixologik muhit va optimizm kabi psixologik omillar negizida tadqiq etilgan.

2. O‘qituvchilarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari kasbiy munosabatlarda kognitiv-emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, ixtiyoriy nazorat va optimistik atributiv uslublarni dinamik ifodalanishiga asoslanib intrapsixik

resurslarning pozitiv fikrlash darajasiga vektorli ta'siri bilan determinatsiyalashganligi dalillandi.

3. Pedagoglardagi pozitiv fikrlash darajasi muvaffaqiyat haqidagi semantik birlikni, ishdagi monotonlikni o'zgartiruvchi omil sifatida faollashtirish ish motivatsiyasini oshirganligi tufayli optimistik kognitiv strukturaning mehnat faoliyatidan qoniqqanlik darajasi ta'sirida namoyon bo'lishi bilan determinatsiyalashganligi aniqlandi.

4. Pedagoglardagi pozitiv fikrlashni namoyon bo'lishiga psixologik to'siq bo'lувчи omillar emotsiyal charchoq, shaxsiy yutuqlarni reduksiyalashga intilishning ijtimoiy aloqalar, tashabbuskorlik va vaziyatni nazorat qila olish kabi xususiyatlarning sust rivojlanganligi bilan bog'liqligi tufayli shaxsiy depersonalizatsiyaning «ekzistensial frustratsiya» asosida kuchli namoyon bo'lishiga ko'ra dalillandi.

5. Pedagoglar faoliyatida pozitiv fikrlashning namoyon bo'lish darajalari ijtimoiy-demografik (yosh, jins, hudud, mehnat tajribasi) omillarning kasbiy «Men»ni differensiatsiyasiga ta'siri natijasida muvaffaqiyatni umumiyl faollik rakursida idrok etishga bog'liq kasbiy moslashuv darajasiga identiv namoyon bo'lishiga ko'ra isbotlandi.

6. Pedagoglarda pozitiv fikrlashni rivojlantirish modeli faoliyatga nisbatan pessimistik kognitsiyalarning optimistik qarashlarga faoliyat intrintsiv motivlar va shaxsiy – kasbiy identifikatsiya orqali o'zgarishi muhimligi tufayli motivation-kognitiv, ijodiy, ijtimoiy, emotsiyal xususiyatlarning «men muvaffaqiyatli» konstruktiga ko'ra birligini ta'minlashi asosida aniqlandi.

Tadqiqot xulosalarga ko'ra quyidagi **ijtimoiy-psixologik va tashkiliy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi**:

1. Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini optimallashtirish maqsadida pedagoglarning individual psixologik holatini monitoring qilib borish va pozitiv fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan psixologik profilaktika ishlarini tizimlashtirish lozim.

2. Pedagoglar uchun maxsus trening va rivojlantiruvchi dasturlarni joriy etish maqsadida trening modullarini malaka oshirish kurslariga integratsiya qilish, ijobiy atributiv uslublarni rivojlantirish, stressga qarshi psixologik immunitetni oshirish va pedagoglar ish qobiliyatini mustahkamlash bo'yicha davriy seminarlar o'tkazib borish maqsadga muvofiq.

3. Pedagoglar faoliyatida ijobiy muhitni shakllantirish jarayonida ta'lim muassasalarida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni qaror toptirishga qaratilgan psixologik tadbirlar, motivatsion kunlar, ijobiy muloqot turkumlari, o'zaro qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish hamda ijobiy iqlim va ruhiy barqarorlikni ta'minlovchi tashkiliy ijtimoiy siyosat ishlab chiqish lozim.

4. Amaliy tadqiqotlar va ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash turkumi bo'yicha, pedagoglar orasida psixologik sog'lomlashtirish, professional sressni kamaytirish, emotsiyal barqarorlikni mustahkamlash borasida ushbu mavzular bo'yicha doimiy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zarur.

5. Ta'lim tizimini normativ-huquqiy va metodik asoslarni takomillashtirish maqsadida davlat ta'lim standartlari va pedagoglar faoliyatini baholash mezonlariga pozitiv psixologiya elementlarini kiritish, natijada pedagoglarning o‘ziga, ta’limga bo‘lgan munosabati doirasida ta’limda bir qator ijobiy samaradorlikni oshishiga erishish maqsadga muvofiq.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
№ PhD.03/30.12.2021.P.26.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
УЗБЕКИСТАНА**

САТТАРОВА ШАХНОЗАХОН КУЧКАРОВНА

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ
ПОЗИТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГОВ**

19.00.05 – Социальная психология. Этнопсихология

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В.2025.2.PhD/P196.

Диссертация выполнена в Национальном педагогическом университете Узбекистана.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-сайте Научного Совета (www.tpdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:

Официальные оппоненты:

Умаров Баҳриддин Мингбоевич

доктор психологических наук, профессор

Мелибаева Роза Насировна

доктор психологических наук (DSc), профессор

Шойимова Шохиста Санакуловна

доктор психологических наук (DSc), профессор

Ведущая организация:

Ферганский государственный университет

Зашити диссертации состоится «23» 09 2026 года в 16:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2021.P.26.02 при Национальном педагогическом университете Узбекистана. (Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор, дом 27. Тел. (+99871) 255-80-86; факс: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz). Административное здание Национального педагогического университета Узбекистана, 2-й этаж, 4-й зал заседаний.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального педагогического университета Узбекистана. (зарегистрирована за №2358). (Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор, дом 27. Тел. (+99871) 255-80-86; факс: (+99871) 276-76-51).

Автореферат диссертации разослан «10» 09 2026 года
(протокол реестра рассылки №358 от «10» 09 2026 года).



Ф.А. Акрамова

председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук (DSc), профессор

Н.Б. Атабаева

ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук (DSc), профессор

З.Т. Нишанова

председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом образовательном пространстве особое внимание уделяется вопросам развития позитивного мышления у педагогов всех образовательных учреждений, выработке новых подходов к формированию позитивного отношения, развитию профессионального успеха и обеспечению профессиональной удовлетворённости. В программных документах Организации Объединённых Наций, в частности во Всемирной декларации «Высшее образование в XXI веке», а также в документах ЮНЕСКО по реформированию и развитию высшего образования¹⁰, наряду с повышением качества образования, обеспечением эффективности педагогической деятельности и внедрением инновационных и креативных подходов, формирование и развитие позитивного мышления у педагогов признаётся одним из важнейших факторов. Современные исследования показывают, что позитивное мышление играет решающую роль в эффективности деятельности человека, его психологическом благополучии и профессиональной устойчивости. Согласно статистическим данным, представленным на международных научных веб-ресурсах «Psychology Today, Verywell Mind, Gallup Well-Being и World Happiness Report», в настоящее время около 35 процентов населения мира считают себя личностями со стабильным позитивным и оптимистичным мышлением, тогда как у оставшихся 65 процентов людей под влиянием стресса, тревожности, профессиональной неопределенности и социального давления преобладает негативное или неопределенное мышление¹¹. По данным Всемирной организации здравоохранения (World Health Organization — WHO), психологическая уязвимость человека оказывает негативное влияние на его повседневную деятельность и работоспособность¹². В связи с этим актуальной проблемой остается развитие позитивного мышления в профессиональной деятельности педагогов, формирование отношения к повседневным стрессам как к времененным состояниям, развитие способности проявлять собственные ресурсы и возможности, повышение уровня субъективного благополучия, удовлетворённости собой и профессиональной деятельностью, а также стабилизация положительного эмоционального климата в трудовом коллективе как важного условия развития позитивного мышления.

¹⁰ Доклад ЮНЕСКО по науке-2015-На пути к 2030 году. YUNESCO Публишинг, 2017.-794c

¹¹ <https://www.psychologytoday.com/us/basics/positive-psychology> Positive Psychology: The Science of Happiness and Well-Being. New York: Sussex Publishers, Inc., 2025.

<https://www.verywellmind.com/how-gratitude-makes-you-happier-5114446> How Gratitude Makes You Happier. New York: Dotdash Meredith, 2020.

<https://www.gallup.com/> State of the World's Emotional Health Report 2025: Global Positive and Negative Emotions Survey. Washington, DC: Gallup, 2025.

<https://www.gallup.com/file-analytics/658169/world-happiness-report-2025.pdf> Global Well-Being Insights and Happiness Rankings. Oxford: Wellbeing Research Centre at University of Oxford, 2025.

¹² <https://www.who.int/en/health-topics/mental-health> The World Health Organization (WHO).

В ведущих мировых организациях высшего образования и научно-практических центрах особое внимание уделяется научным исследованиям, направленным на формирование позитивного мышления у личности, разработку теоретических основ развития позитивного мышления в рамках учебных дисциплин, связанных с профессиональной деятельностью, а также на развитие позитивного мышления в повседневной жизни, формирование позитивного отношения к мировоззрению, стабилизацию личностного здоровья, профилактику профессионального выгорания, развитие и совершенствование человеческой деятельности. В данном контексте возрастаёт необходимость изучения факторов, влияющих на позитивное мышление в профессиональной деятельности педагогов, особенностей проявления позитивного мышления у педагогов, влияния профессиональных кризисных факторов и снижения работоспособности на позитивное мышление, а также проведения диагностики проблем, связанных с эмоциональным выгоранием в процессе трудовой деятельности, профессиональной адаптацией и ролью позиции оптимизма. Наряду с этим особую значимость приобретает разработка и развитие психокоррекционных возможностей, направленных на формирование и укрепление позитивного мышления у педагогов.

В Новом Узбекистане в последние годы определены приоритетные направления масштабных реформ, направленных на обеспечение позитивного мышления в профессиональной деятельности педагогов, создание условий для их полноценного участия в социально-политической жизни общества, развитие профессиональной зрелости, стабилизацию психологического климата в коллективе посредством позитивного мышления, содействие саморазвитию и достижению успеха в выбранной профессии, а также всестороннюю поддержку педагогических кадров. В рамках данных реформ были созданы необходимые нормативно-правовые основы, в частности в постановлении «О мерах по повышению качества педагогического образования и дальнейшему развитию деятельности высших образовательных учреждений, осуществляющих подготовку педагогических кадров»¹³. Исходя из поставленных задач, особое внимание уделяется поддержке педагогов, развитию у них позитивного мышления, а также формированию у современного педагога не только профессиональной компетентности, но и способности анализировать и оценивать возникающие проблемы, оказывать эффективную психологическую помощь и поддержку обучающимся, выступать личным примером позитивного мышления и формировать объективную оценку происходящих событий на основе позитивного восприятия действительности.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21-iyundagi PQ-289 son «Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. - <https://lex.uz/uz/docs/6079561>

На основе задач, определённых в постановлении «Об утверждении Национальной программы развития народного образования»¹⁴, были созданы возможности для повышения качества образования путём широкого внедрения в учебно-воспитательный процесс современных и инновационных педагогических методов обучения, популяризации положительного опыта образовательных учреждений в сфере педагогики, а также современных методов обучения и оценки знаний обучающихся. Кроме того, на основе выявления проблем, связанных с развитием науки и образования, были созданы условия для углубления научных исследований, направленных на совершенствование качества образования, и поиска новых интегративных теоретических решений.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит решению задач, намеченных в Законе Республики Узбекистан от 1 мая 2023 года № ЗРУ-837 «О Конституции Республики Узбекистан», Указах Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030», от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы», от 6 ноября 2020 года № УП-6108 «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана», от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 11 июля 2019 года № УП-5763 «О мерах по реформированию управления в сфере высшего и среднего специального образования», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 21 июня 2022 года № ПП-289 «О мерах по повышению качества педагогического образования и дальнейшему развитию деятельности высших образовательных учреждений по подготовке педагогических кадров», постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 31 декабря 2019 года № 1059 «О мерах по реализации и утверждения Концепции непрерывного духовного воспитания», а также других нормативно-правовых документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11-maydagi «2022-2026 yillarda halq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-134-son Farmoni. - <https://president.uz/oz/lists/view/5199>

Обзор зарубежных исследований по теме диссертации¹⁵. Научные изыскания, посвящённые позитивному мышлению и профессиональной и учебной деятельности, проводятся в ведущих научных центрах и высших образовательных учреждений мира, в частности, Северо-Восточном университете (Northeastern University Boston, США), Мюнхенском университете (LMU, Германия), Рижентском университете (Regents University, Великобритания), Гронингенском университете (Нидерланды), Berlin Humboldt университете (Германия), университе Сорбонна (Франция), Мичиганском университете (США), Московском государственном университете имени Ломоносова (Россия), Санкт-Петербургском государственном университете (Россия), Сеульском Национальном университете (Seul National University, Южная Корея), Англиянинг Chester (Psychology and Child Development (with Placement Year) BSc) (Англия), Китайском национальном центре педагогических исследований (NIES, Гуанжуо).

